

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida:  
UDK: 338.46:002

**XODJAYEV SAIDAKMAL MAXAMADOVICH**


**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON HUKUMAT  
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan  
DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: akad., iqt.f.d., prof. Saidaxror Saidaxmedovich Gulyamov**

Toshkent – 2023



## Mundarija

KIRISH .....	3
I BOB. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA JAMIYAT TRANSFORMATSIYASINING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI.....	11
§ 1.1. Rivojlanishning zamonaviy bosqichida jamiyatning raqamli transformatsiyasi.....	11
§ 1.2. Raqamli iqtisodiyot sharoitida jamiyat hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘zaro integratsiyasi.....	19
§ 1.3. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash zaruriyati.....	35
Birinchi bob bo‘yicha xulosa .....	48
II BOB. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA “ELEKTRON HUKUMAT” TIZIMI ILMIY-AMALIY MODEL I ASOSLARI .....	50
§ 2.1. “Elektron hukumat” tushunchasi genezisi, shakllanish xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi o‘rni .....	50
§ 2.2. Raqamli iqtisodiyot sharoitida “Elektron hukumat” tizimi faoliyatining huquqiy asoslari .....	60
§ 2.3. “Elektron hukumat” tizimini shakllantirishga zamonaviy yondashuvlar va tadbir qilish amaliyoti.....	73
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	89
III BOB. IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA “ELEKTRON HUKUMAT” TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	91
§ 3.1. Raqamli iqtisodiyot sharoitida “Elektron hukumat” tizimining funktsional arxitekturasi va tuzilmasini tatbiq qilish.....	91
§ 3.2. “Elektron hukumat” tizimida “Qayta aloqa” - “Virtual qabulxona” quyi tizimining o‘rni va ahamiyati.....	102
§ 3.3. Raqamli iqtisodiyot sharoitida “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish istiqbollari ...	116
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa .....	122
XYJIOCA.....	123
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....	125
ILOVALAR .....	137

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda XX asrning so‘nggi choragida “axborotlashtirish” va “axborotlashgan jamiyat” amaliyoti ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohalarda o‘z o‘rnini mustahkam egalladi. XXI asrdan e’tiboran hozirgacha axborotlashgan jamiyat, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonining jadallashuvi kuzatilmoqda. “2022-yilning boshiga kelib, dunyodagi 5,2 mlrd. inson (dunyo aholisining 66,6 foiz) mobil aloqa, 4,8 mlrd. (59,5 foiz) – Internet, shu jumladan 3,8 mlrd. – ijtimoiy tarmoqlarning faol mobil foydalanuvchilariga aylanmoqda” [89]. Raqamlashtirish jarayonlarining jadallashib borishi sharoitida elektron hukumat tizimini muttasil takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Jahonda davlat hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirishning zamonaviy bosqichida, ma’lumotlarni intellektual chuqur tahlil qilish (Data Mining, DM) va sun’iy intellekt (Artificial Intelligence, AI) texnologiyalari, jumladan, kognitiv tahlil, kvant hisoblashlar, neyron tarmoqlari, tabiiy tilni qayta ishlash, mashinalarni o‘qitish usullarini qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar salmog‘i ortib bormoqda.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilib, “elektron hukumat” tizimini rivojlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi Davlat dasturida: “...elektron hukumat tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini amaldagi 54 foizdan 100 foizga yetkazish ...” [6] kabi vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning ilmiy ta’minotini amalga oshirish, elektron hukumat tizimini shakllantirish jarayonlarini yanada takomillashtirish, ya’ni davlat xizmatlarini markazlashtirilgan tartibda elektron shaklga o‘tkazishga oid yo‘riqnoma hamda ko‘rsatmalarni ishlab chiqish va takomillashtirish, tizimni tartibga solishda ishtirokchilarning vazifalarini rasional taqsimlash, yagona identifikatsiya va axborot xavfsizligini kompleks qamrab olgan holda elektron hukumat tizimining yaxlit funksional arxitekturasini takomillashtirish bo‘yicha